O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 130.2:321.01:004

Behzod U. QOBULOV,
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Namangan, O‘zbekiston
E-mail: justprogress2030@gmail.com. ORCID: 0009-0008-2009-0038

DSc, dotsent S. Abdusattarova taqrizi asosida

RAQAMLI MAKONDA DAVLAT SUVERENITETI TRANSFORMATSIYASINING ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada raqamli makonda davlat suverenitetining transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Suverenitetning Vestfaliya modeli hududiylik, monopoliya va yurisdiksiya tamoyillariga tayanadi, raqamli muhit esa bu tamoyillarning har biriga ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqotda suverenitetning uchta falsafiy o‘lchovi (ontologik, gnoseologik va aksiologik) ajratiladi. Ishda raqamli suverenitet davlat hokimiyatining yo‘qolishi emas, balki uning ko‘p qatlamli va hamkorlik asosidagi shaklga o‘tishi sifatida izohlanadi. Maqola suverenitetni «hudud ustidan hokimiyat»dan «ma’lumot va infratuzilma ustidan nazorat va legitimlik»ka siljish jarayoni sifatida talqin qiladi.

Kalit so‘zlar: Suverenitet, raqamli makon, raqamli suverenitet, ijtimoiy falsafa, legitimlik, ma’lumotlar, infratuzilma, globallashuv.

ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE TRANSFORMATION OF STATE SOVEREIGNTY IN DIGITAL SPACE

Annotatsion

The article analyses the transformation of state sovereignty in digital space from a socio-philosophical perspective. Three philosophical dimensions of sovereignty (ontological, epistemological and axiological) are identified. Digital sovereignty is interpreted not as the disappearance of state power but as its transition to a multi-layered, cooperative form.

Key words: Sovereignty, digital space, digital sovereignty, social philosophy, legitimacy, data, infrastructure, globalization.

ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ И ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО СУВЕРЕНИТЕТА В ЦИФРОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Аннотация

В статье анализируется трансформация государственного суверенитета в цифровом пространстве с социально-философской точки зрения. Выделены три философских измерения суверенитета: онтологическое, гносеологическое и аксиологическое. Цифровой суверенитет интерпретируется не как исчезновение государственной власти, а как её переход к многоуровневой форме, основанной на сотрудничестве.

Ключевые слова: Суверенитет, цифровое пространство, цифровой суверенитет, социальная философия, легитимность, данные, инфраструктура, глобализация.

Kirish. XXI asr boshida ijtimoiy hayotning muhim qismi raqamli makonga ko‘chdi. Iqtisodiy almashinuv, siyosiy ishtirok, ta’lim, madaniy muloqot va hatto shaxsiy hayot raqamli platformalar orqali tashkil etilmoqda. Bu hol davlat suvereniteti haqidagi klassik tasavvurlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

L. Floridi raqamli suverenitetni ma’lumotlar, dasturiy vositalar, texnik standartlar va infratuzilma ustidan nazorat masalasi sifatida tushuntiradi [1]. Bu yondashuv davlat vakolati bilan uni amalga oshirish imkoniyati o‘rtasidagi farqni ochadi. Bizningcha, serverning muayyan hududda joylashishi mustaqil boshqaruvni o‘z-o‘zidan ta’minlamaydi: dasturiy ta’minot, xizmat ko‘rsatish va ma’lumotdan foydalanish qoidalariga bog‘liqlik ham hisobga olinishi kerak.

X.M.Burxanov milliy saytlar transformatsiyasiga oid tadqiqotida axborot xavfsizligini foydalanuvchi huquqlari, internet boshqaruvidagi davlatlar tengligi va xalqaro hamkorlik bilan bog‘laydi [2]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, suverenitetni baholashda nazorat ko‘lami bilan birga uning asoslanganligini ham tekshirish lozim. Fuqaroning axborot olish imkoniyati, ma’lumotning ishonchliligi va qaror ustidan e’tiroz bildirish huquqi tadqiqotimizda muhim mezon sifatida qaraladi.

2024-yil 22-sentabrda qabul qilingan BMTning Global raqamli paktida inson huquqlariga tayangan raqamli hamkorlik hamda mas’uliyatli va o‘zaro muvofiqlashgan ma’lumotlar boshqaruvi maqsad qilib belgilangan [3]. Bizning talqinimizcha, bu yo‘nalish milliy vakolatlarni xalqaro kelishuvlar bilan uyg‘unlashtirish masalasini dolzarblashtiradi. Davlatning mustaqilligi umumiy texnik standartlarda qatnashish, chegaralararo xizmatlar bo‘yicha mas’uliyatni aniqlash va fuqarolar manfaatini himoyalash qobiliyatida ham namoyon bo‘ladi.

Muammoning gnoseologik jihati davlatning qancha ma’lumot to‘plashidan ko‘ra, uni qanday tekshirishi va qarorga aylantirishida ochiladi. Algoritmik tavsiyani tayyor haqiqat sifatida qabul qilish boshqaruvdagi mas’uliyatni xiralashtirishi mumkin. Shu sababli tadqiqotimizda raqamli suverenitetning ontologik asosi infratuzilma va vakolatlar munosabati orqali, gnoseologik asosi esa ma’lumotning kelib chiqishi, tekshirilishi va talqinini nazorat qilish imkoniyatlari orqali o‘rganiladi.

Maqolaning maqsadi raqamli makonda davlat suvereniteti transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy asoslarini aniqlashdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi: (1) suverenitetning falsafiy o‘lchovlarini ajratish; (2) raqamli makon ta’sirida ularning o‘zgarishini tahlil qilish; (3) raqamli suverenitetning nazariy modelini taklif etish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy suverenitet tushunchasi J. Boden va T.Gobbs ta’limotlarida

shakllangan va 1648 yilgi Vestfaliya tinchligidan keyin xalqaro tartibning asosiga aylangan [4], [5]. Unga ko‘ra, davlat ma’lum hududda oliy va bo‘linmas hokimiyatga ega bo‘ladi. Raqamli makon esa aniq chegaralarga ega emas, ma’lumotlar yurisdiksiyalar osha uzluksiz harakatlanadi, axborot oqimlarining muhim qismi esa transmilliy texnologiya kompaniyalari tasarrufida.

J.P.Barlou 1996-yilda «Kiberfazo mustaqilligi deklaratsiyasi»da hukumatlarning raqamli muhitda suvereniteti yo‘qligini e’lon qilgan edi [6]. Ammo keyingi o‘n yilliklar bu bashorat to‘liq ro‘yobga chiqmaganini ko‘rsatdi. Davlatlar internetni tartibga solish, milliy infratuzilma yaratish, ma’lumotlarni mahalliylashtirish va kiberxavfsizlik tizimlarini rivojlantirish orqali o‘z hokimiyatini raqamli muhitda qayta qurib, undan kuchaytirilgan shaklda foydalanmoqda. Shu bois muammo suverenitetning «yo‘qolishi»da emas, uning transformatsiyasida.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ijtimoiy falsafa doirasida o‘tkazilgan bo‘lib, quyidagi usullarga tayanadi:

-tarixiy-mantiqiy usul suverenitet g‘oyasining Boden, Gobbs, Shmitt va Xabermas asarlaridagi evolyutsiyasini kuzatish uchun qo‘llanildi;

-tizimli tahlil raqamli makonni ijtimoiy tizim sifatida, uning infratuzilma, ma’lumot va normalar qatlamlari birligida o‘rganishga imkon berdi;

-qiyosiy-konseptual tahlil «raqamli suverenitet», «ma’lumotlar suvereniteti» va «texnologik suverenitet» tushunchalarini ajratish uchun ishlatildi;

-germenevtik usul normativ hujjatlar va nazariy matnlarni talqin qilishda qo‘llanildi.

Empirik baza sifatida O‘zbekiston Respublikasining «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi (PF-6079, 2020-yil 5-oktyabr),[7] «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi[8], (2019) va «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi (2022) qonunlari, shuningdek raqamli suverenitet bo‘yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, [9].

Tahlil va natijalar. 1. Suverenitetning falsafiy o‘lchovlari

Tahlil suverenitetni uch o‘zaro bog‘liq o‘lchovda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq ekanini ko‘rsatdi.

Ontologik o‘lchov. Suverenitetning «borliq» asosi nima: hududmi, aholimi yoki hokimiyatni amalga oshirish imkoniyatimi? Vestfaliya modelida bu asos jismoniy hudud edi. Raqamli makonda hokimiyat obyekti sifatida ma’lumot, algoritm va infratuzilma maydonga chiqadi. M.Kastelsning «oqimlar makoni» konsepsiyasi ijtimoiy hayotning tashkiliy asosi «joylar»dan «oqimlar»ga ko‘chayotganini ko‘rsatadi[10]. B.Brettonning «Stek» modeli esa raqamli makon yer, bulut, shahar, manzil, interfeys va foydalanuvchi qatlamlaridan iborat «tasodifiy megastruktura» ekanini asoslaydi[11]. Demak, suverenitet obyekti «sof» hudud emas, balki hududiy va nohududiy unsurlarning o‘zaro bog‘liqligidir.

Gnoseologik o‘lchov. Hokimiyat bilim orqali amalga oshadi. M. Fuko asarlaridan boshlab hokimiyat bilim va nazorat amaliyotlari bilan ajralmas deb tushunib kelinadi. Raqamli muhitda bilim ishlab chiqaruvchi subyektlar (platformalar, algoritmlar, ma’lumotlar markazlari) fuqarolar haqida davlatning o‘zidan ko‘ra ko‘proq axborotga ega bo‘lishi mumkin. Sh. Zuboffning «kuzatuv kapitalizmi» konsepsiyasi xulq-atvor ma’lumotlarining tijoriy maqsadda yig‘ilishi va bashorat qilinishi noan’anaviy hokimiyat shaklini yaratayotganini ko‘rsatadi [12]. Bu holatda suverenitet bilimga egalik va uni talqin qilish qobiliyati bilan bog‘lanadi.

Aksiologik o‘lchov. Suverenitet legitimlik bilan, ya’ni hokimiyatning ijtimoiy qabul qilinganligi bilan ajralmas. Yu. Xabermas «postmilliy konstellyatsiya»da davlat vakolatlarining milliy chegaradan tashqariga chiqishi demokratik legitimlik muammosini keltirib chiqarishini ta’kidlagan [13]. Raqamli davrda legitimlik yangi mezonlar — shaffoflik, ma’lumotlar xavfsizligi, algoritmik adolat va fuqaro huquqlarini himoya qilish — bilan belgilanadi.

2. Vestfaliya tamoyillarining transformatsiyasi

Raqamli makon ta’sirida suverenitetning asosiy tamoyillari quyidagicha o‘zgaradi (1-jadval).

1-jadval. Suverenitet tamoyillarining transformatsiyasi

Tamoyil	Klassik model	Raqamli transformatsiya
Hududiylik	Jismiy chegara	Hududiy va nohududiy qatlamlar (kabellar, serverlar, platformalar)
Monopoliya	Majburlov vositalari monopoliyasi	Hokimiyatning davlat va xususiy subyektlar o‘rtasida taqsimlanishi
Yurisdiksiya	Aniq hududiy	Eksterritorial tartibga solish, yurisdiksiyalar raqobati
Legitimlik	Milliy-siyosiy jamoa	Texnologik ishonchga ham asoslangan legitimlik

S. Sassen ta’biricha, globallashuv milliy davlatni yo‘qotmaydi, balki «hudud, hokimiyat va huquqlar» o‘rtasidagi aloqani qayta jamlaydi [14]. Bu xulosa raqamli sohada ham tasdiqlanadi.

3. «Raqamli suverenitet» tushunchasi tasnifi

S. Kutyur va S. Tupen, shuningdek Yu. Pole va T. Til tadqiqotlari «raqamli suverenitet» terminining noaniqligini ko‘rsatadi. Ular tushuncha davlat, shaxs va korporativ subyektlar darajasida turlicha ishlatilishini ta’kidlaydi [15], [16]. Bizning tahlilimiz asosida uch daraja ajratildi:

1) infratuzilmaviy suverenitet - kritik tarmoqlar, ma’lumotlar markazlari va aloqa kanallari ustidan nazorat;

2) ma’lumotlar suvereniteti - ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va ishlatishni huquqiy tartibga solish qobiliyati;

3) normativlik suvereniteti - raqamli muhitda qoidalar belgilash va ularning bajarilishini ta’minlash imkoniyati.

Bu darajalarning barchasi legitimlik asosiga tayanadi. Agar tartibga solish fuqaro huquqlarini himoya qilmasa, u texnologik nazoratga aylanib, suverenitetning aksiologik asosini zaiflashtiradi.

Olingan natijalar raqamli suverenitetni ikki qutbli (davlat yoki korporatsiya, ochiqlik yoki yopiqlik) talqindan farqli, ko‘p qatlamli va moslashuvchan hokimiyat modeli sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. L. Lessig «kod – bu qonun» degan g‘oyani ilgari surgan edi [17]. Raqamli makonda texnik arxitektura normalarni belgilaydi, shuning uchun suverenitetni huquqiy-siyosiy doirada cheklash yetarli emas, u texnik arxitekturani loyihalashda ishtirok etish qobiliyatini ham qamrab oladi.

O‘zbekiston misolida «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi va shaxsga doir ma’lumotlar hamda kiberxavfsizlik sohasidagi qonunchilik davlatning infratuzilmaviy va normativlik suverenitetini mustahkamlashga qaratilganini ko‘rsatadi [7], [8], [9]. Shu bilan birga, global platformalarga bog‘liqlik, texnologiyalarni import qilish va ma’lumotlar oqimidagi asimmetriya suverenitetning gnoseologik o‘lchovi (bilimga egalik) sohasida qiyinchiliklar saqlanib qolayotganidan dalolat beradi.

Ehtiyotkorlik bilan aytish mumkinki, suverenitetning ortiqcha «yopiq» talqini raqamli iqtisodiyot va innovatsiyaga to‘siq bo‘lishi mumkin, himoyasiz «ochiqlik» esa milliy

manfaatlarni zaif qiladi. Shu bois oqilona yo‘l - ochiqlik bilan himoya o‘rtasidagi muvozanat, ya’ni hamkorlikka asoslangan suverenitet konsepsiyasidir. Tadqiqotning cheklanganligi uning asosan nazariy xarakterga egaligidadir. Kelgusi tadqiqotlarda empirik so‘rovlar va qiyosiy keys-tahlillar zarur.

Xulosa va takliflar. 1. Raqamli makon davlat suverenitetini yo‘qqa chiqarmaydi, ammo uning ontologik asosini hududdan ma’lumot, infratuzilma va algoritmlar majmuasiga ko‘chiradi.

2. Suverenitetning gnoseologik o‘lchovi bilimga egalik va axborot oqimlarini talqin qilish qobiliyati sifatida kuchayadi.

3. Aksiologik o‘lchov legitimlikning yangi mezonlarini - shaffoflik, xavfsizlik va algoritmik adolatni - ilgari suradi.

4. Raqamli suverenitet infratuzilmaviy, ma’lumotlar va normativlik darajalaridan iborat ko‘p qatlamli hamkorlik modelidir.

ADABIYOTLAR

1. Floridi L. The Fight for Digital Sovereignty: What It Is, and Why It Matters, Especially for the EU // Philosophy & Technology. 2020. Vol. 33. P. 369–378. DOI: 10.1007/s13347-020-00423-6.
2. Burxanov X. M. Raqamli jamiyatda milliy saytlar transformatsiyasi jarayonida axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari: sotsiologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2025. — B. 28.
3. United Nations General Assembly. The Pact for the Future. Resolution A/RES/79/1, 22 September 2024. Annex I: Global Digital Compact. Paras. 5–8. URL: https://docs.un.org/en/A/RES/79/1.
4. Bodin J. Les six livres de la République. Paris, 1576.
5. Hobbes T. Leviathan. London, 1651.
6. Barlow J.P. A Declaration of the Independence of Cyberspace. Davos, 1996.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
8. O‘zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi Qonuni, 2019 yil 2 iyul.
9. O‘zbekiston Respublikasining «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi Qonuni, 2022 yil 15 aprel.
10. Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 1996.
11. Bratton B. The Stack: On Software and Sovereignty. Cambridge, MA: MIT Press, 2015.
12. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism. New York: PublicAffairs, 2019.
13. Habermas J. Die postnationale Konstellation. Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1998.
14. Sassen S. Territory, Authority, Rights: From Medieval to Global Assemblages. Princeton University Press, 2006.
15. Couture S., Toupin S. What does the notion of "sovereignty" mean when referring to the digital? // New Media & Society. 2019. Vol. 21(10). P. 2305–2322.
16. Pohle J., Thiel T. Digital sovereignty // Internet Policy Review. 2020. Vol. 9(4).
17. Lessig L. Code and Other Laws of Cyberspace. New York: Basic Books, 1999.